

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

SULAYMONOVA NIGORA

ARAB TILI

(II qism)

USLUBIY QO‘LLANMA

Toshkent – 2024

Taqrizchilar

Muhiddinova Dilafruz *Toshkent davlat Sharqshunoslik universiteti Sharq mamlakatlari adabiyoti va qiyosiy adabiyotshunoslik kafedrası mudiri, filologiya fanlari doktori, dotsent.*

Rashidova Nargiza *Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti Xorijiy tillar kafedrası mudiri, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent.*

Mazkur uslubiy qo'llanma 60230100 – Filologiya va tillarni o'qitish, 60230600 – Tarjima nazariyasi va amaliyoti, 60111600 – O'zga tili guruhlarda o'zbek tili, 60230600 – Noshirlik ishi ta'lim yo'nalishlari talabalari uchun mo'ljallangan bo'lib, u mazkur yo'nalishlardagi "Sharq tillari (Arab tili)", "Ikkinchi chet tili (Arab tili)" fanlari sillabusi asosida tayyorlangan hamda sillabusga kiritilgan barcha mavzularni qamrab olgan. Unda arab tili grammatikasiga doir qonun-qoidalar qisqa va lo'nda qilib berilgan. Mavzularni tushuntirishda vizuallikni ta'minlash maqsadida zamonaviy dasturlardan unumli foydalanilgan. Har bir mavzudan keyin uni mustahkamlash maqsadida turli metodlarga asoslangan mashq va topshiriqlar berilgan.

Qo'llanmadan arab tili ikkinchi chet tili sifatida o'qitiladigan yo'nalishlar talabalari, shuningdek, arab tiliga qiziquvchilar foydalanishlari mumkin. Mazkur qo'llanma arab tilidan dars beruvchi professor-o'qituvchilar uchun ham qo'shimcha adabiyot sifatida xizmat qiladi.

Mazkur uslubiy qo'llanma Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti Uslubiy kengashining 2024-yil 30-may 10-sonli yig'ilishi qaroriga asosan nashrga tavsiya etilgan.

MUQADDIMA

Jahon miqyosida kechayotgan globallashuv va integratsiyalashuv jarayonlari fan va texnika, texnologiyalarni jadal sur'atlarda rivojlanishi bilan tavsiflanadi. Bu tendensiya, birinchi navbatda, mutaxassislardan xorijiy tillarni bilishni talab qiladi. Shuning uchun ham bugungi kun talabadan o'z ona tilidan tashqari bir necha xorijiy tillarni mukammal bilishni taqozo etmoqda. Yoshlar o'rtasida xorijiy tillar qatori, sharq tillarini, xususan, arab tilini o'rganishga bo'lgan qiziqish tobora ortib borayapti. Bu esa, o'z navbatida, arab tili bo'yicha zamonaviy darsliklar, o'quv qo'llanmalar, uslubiy qo'llanmalarning yangi avlodlarini yaratish ehtiyojini yuzaga keltirmoqda.

Hozirgi kunda arab tili bo'yicha mavjud darsliklar, o'quv va uslubiy qo'llanmalar, asosan arab tili birinchi chet tili sifatida o'qitiladigan oliy ta'lim muassasalari talabalariga mo'ljallangan. Arab tili ikkinchi chet tili sifatida o'qitiladigan yo'nalishlarda darslik va qo'llanmalarning tanqisligi kuzatilmoqda. Mazkur uslubiy qo'llanma aynan shu tanqislikni muayyan darajada bartaraf etish maqsadida tayyorlangan. Qo'llanmada arab tili ikkinchi chet tili sifatida o'qitiladigan yo'nalishlar sillabusiga kiritilgan barcha mavzular qamrab olingan.

Qo'llanmada arab tili bo'yicha shu kungacha mavjud bo'lgan darslik va o'quv qo'llanmalarga asoslangan holda arab tili grammatikasiga doir qonun-qoidalar bayon etilgan. Mavzularni tushuntirishda vizuallikni ta'minlash maqsadida zamonaviy dasturlardan unumli foydalanilgan. Har bir mavzudan keyin uni mustahkamlash maqsadida turli metodlarga asoslangan mashq va topshiriqlar berilgan. Topshiriq va mashqlarning turli-tumanligi talabalarning arab tili borasidagi nazariy bilimlarini yanada mustahkamlash hamda amaliy malaka va ko'nikmalarini shakllantirish imkonini beradi.

Mazkur qo'llanma arab tilidan dars beruvchi professor-o'qituvchilar uchun ham qo'shimcha adabiyot sifatida xizmat qilishi mumkin.

16-DARS

SO‘ROQ GAPLAR

Umumiy
so‘roq gaplar

Alternativ
so‘roq gaplar

Maxsus
so‘roq gaplar

“Ha” yoki “yo‘q” qisqa javobini talab qiluvchi so‘roq gap turi **umumiy so‘roq gap** deyiladi. Arab tilida umumiy so‘roq gaplar quyidagi “-mi” so‘roq yuklamasi bilan boshlanadi:

-mi

Sen talabamisan?

Bu doskami?

هَلْ

هَلْ أَنْتَ طَالِبٌ؟
هَلْ هَذِهِ سَبُّورَةٌ؟

أَ

أَ أَنْتَ طَالِبٌ؟
أَ هَذِهِ سَبُّورَةٌ؟

HA

Ha, men talabaman.

Ha, bu doska.

نَعَمْ

نَعَمْ، أَنَا طَالِبَةٌ.

نَعَمْ، هَذِهِ سَبُّورَةٌ.

YO‘Q

Yo‘q, men o‘qituvchiman.

Yo‘q, bu shkaf.

لَا

لَا، أَنَا مُدَرِّسٌ.

لَا، هَذِهِ خِزَانَةٌ.

So‘roq yuklamadan keyingi so‘z “al” aniqlik artiklini olgan bo‘lsa, yuklamadagi sukun belgisi kasra harakatiga o‘zgaradi.

هَلِ الْبُيُوتُ بَارِدَةٌ؟

Uylar sovuqmi?

هَلِ الصُّورَةُ قَدِيمَةٌ؟

Rasm eskimi?

هَلِ الْأَقْلَامُ حَمْرَاءُ؟

Qalamlar qizilmi?

هَلِ الْمُدْرِسُ مِنْ سُورِيَا ؟

O'qituvchi Suriyadanmi?

هَلِ النَّافِذَةُ مَفْتُوحَةٌ ؟

Deraza ochiqmi?

هَلِ الدَّرُوسُ سَهْلَةٌ ؟

Darslar osonmi?

هَلِ الطَّالِبُ أُوزْبِكِي ؟

Talaba o'zbekmi?

هَلِ الْقَاهِرَةُ مَدِينَةٌ ؟

Qohira shaharmi?

هَلِ السُّعُودِيَّةُ دَوْلَةٌ ؟

Saudiya davlatmi?

هَلِ الْجَوُّ بَارِدٌ ؟

Havo sovuqmi?

Ikki va undan ortiq variant taklif qilinadigan soʻroq gap turi **alternativ soʻroq gap** deyiladi. Arab tilida alternativ soʻroq gaplar xuddi umumiy soʻroq gaplar kabi boshlanib, taklif etilayotgan variantlar oʻrtasiga **“yoki”** soʻzi qoʻyiladi. Javobda esa soʻroq gapdagi variantlardan biri tanlanadi.

هَلِ الْبُيُوتُ بَارِدَةٌ أَوْ حَارَّةٌ؟

الْبُيُوتُ بَارِدَةٌ.

Uylar sovuqmi yoki issiqmi? Uylar – sovuq.

هَلِ الْمُدَرِّسُ مِنْ سُورِيَا أَوْ مِصْرَ؟

الْمُدَرِّسُ مِنْ مِصْرَ.

*Oʻqituvchi Suriyadanmi yoki Misrdan?
Oʻqituvchi Misrdan.*

هَلِ النَّافِذَةُ مَفْتُوحَةٌ أَوْ مَقْفُولَةٌ؟

النَّافِذَةُ مَفْتُوحَةٌ.

Deraza ochiqmi yoki yopiq? Deraza – ochiq.

هَلِ الْقَاهِرَةُ دَوْلَةٌ أَوْ مَدِينَةٌ؟

الْقَاهِرَةُ مَدِينَةٌ.

Qohira davlatmi yoki shahar? Qohira – shahar.

So'roq olmoshlari bilan boshlanib, to'liq javob talab etadigan so'roq gap turi **maxsus so'roq gap** deyiladi.

SO'ROQ OLMOSHLARI			
<i>Qayerda?</i>	أَيْنَ	<i>Kim?</i>	مَنْ
<i>Qayerdan?</i>	مِنْ أَيْنَ	<i>Nima?</i>	مَا
<i>Qayerga?</i>	إِلَى أَيْنَ	<i>Nimaga?</i>	لِمَاذَا
<i>Qachon?</i>	مَتَى	<i>Qanday?</i>	كَيْفَ

مِنْ أَيْنَ هَذَا الْمُدَرِّسُ ؟

هَذَا الْمُدَرِّسُ مِنْ مِصْرَ.

Bu o'qituvchi qayerdan?

Bu o'qituvchi Misrdan.

كَيْفَ الطَّقْسُ الْيَوْمَ ؟

الطَّقْسُ بَارِدٌ الْيَوْمَ.

Bugun ob-havo qanday?

Bugun ob-havo sovuq.

كَلِمَاتٌ جَدِيدَةٌ

مُفْرَدٌ	جَمْعٌ	تَرْجَمَةٌ
طَبِيبٌ	أَطِبَاءٌ	shifokor
رِسَالَةٌ	رَسَائِلُ	xat
رَغِيفٌ	أَرْغِفَةٌ	non
مِلْعَقَةٌ	مَلَاعِقُ	qoshiq
مَلْعَبٌ	مَلَاعِبُ	stadion
مَسْرَحٌ	مَسَارِحُ	teatr
مَتَحَفٌ	مَتَاحِفُ	muzey
هُنَا		bu yerda
هُنَاكَ		anavi yerda

1-topshiriq. Quyidagi savollarga javob bering.

1. “أَيْنَ” so‘roq olmoshidan predlog qo‘shish orqali yasalgan so‘roq olmoshlarini yozing.
2. “هَلْ” so‘roq yuklamasi o‘zbek tiliga qanday tarjima qilinadi?
3. So‘roq gaplarning qaysi turlarida so‘roq olmoshlari

- ishlatiladi?
4. Alternativ so‘roq gaplarda nechta variant taklif qilinadi?
 5. Arab tilida so‘roq yuklamalari qaysilar?
 6. So‘roq gaplarning qaysi turida to‘liq javob talab qilinadi?
 7. “هَلْ” so‘roq yuklamasi so‘roq gaplarning qaysi turida ishlatiladi?
 8. So‘roq gaplarning qaysi turida qisqa javob talab qilinadi?
 9. “Ha” va “Yo‘q” so‘zlarini yozing.
 10. Mim harfi bilan boshlanuvchi uchta so‘roq olmoshini yozing.
 11. “أَوْ” so‘zi so‘roq gaplarning qaysi turida ishlatiladi?
 12. Arab tilida so‘roq gaplarning nechta turi bor?
 13. هَلْ تِلْكَ الْجَامِعَةُ جَدِيدَةٌ أَوْ قَدِيمَةٌ?
Mazkur so‘roq gap so‘roq gaplarning qaysi turiga kiradi?
 14. “هَلْ” so‘roq yuklamasi bilan boshlanuvchi so‘roq gap turlari qaysi?
 15. Umumiy so‘roq gaplar qanday boshlanadi?
 16. “هَلْ” so‘roq yuklamasidagi sukun belgisi qachon kasra harakatiga o‘zgaradi?
 17. Beshta so‘roq olmoshini yozing.
 18. أَيْنَ جَامِعَتُكَ? Mazkur so‘roq gap so‘roq gaplarning qaysi turiga kiradi?
 19. هَلْ هَذِهِ السَّيَّارَةُ سَوْدَاءُ? Mazkur so‘roq gap so‘roq gaplarning qaysi turiga kiradi?
 20. “هَلْ” so‘roq yuklamasidan keyin kelayotgan so‘z “al” aniqlik artiklini olgan bo‘lsa, yuklamadagi sukun nimaga o‘zgaradi?

2-topshiriq. So‘roq gaplarni davom ettiring va ularning turini aniqlang, savollarga javob bering.

۱.	مِنْ أَيْنَ تِلْكَ ... ؟
۲.	هَلِ الْبُيُوتُ ... ؟
۳.	هَلْ ذَلِكَ السُّوقُ ... أَوْ ... ؟
۴.	مَتَى ... ؟
۵.	مَا ... ؟
۶.	هَلْ جَامِعَتُنَا ... أَوْ ... ؟
۷.	هَلْ هَذِهِ السَّيَّارَةُ ... ؟
۸.	مِنْ أَيْنَ أَوْلَئِكَ ... ؟
۹.	هَلْ تِلْكَ الْمَدِينُ ... ؟
۱۰.	هَلْ هَذَا النَّجَّارُ ... أَوْ ... ؟

3-topshiriq. Quyida berilgan har bir darak gapdan har uch turdagi so‘roq gaplarni yasang.

۱.	تِلْكَ مَدْرَسَةٌ.
۲.	ذَلِكَ فُنْدُقٌ.

٣.	نَحْنُ نَجَّارُونَ.
٤.	أَنْتِ خِيَّاطَةٌ.
٥.	هَذِهِ غُرْفَةٌ.
٦.	هَذَا نَهْرٌ.
٧.	هُنَّ مُتَرْجِمَاتٌ.
٨.	أَنْتُمْ مُدَرِّسَاتٌ.
٩.	أُولَئِكَ بَنَاتٌ.
١٠.	هُؤُلَاءِ فَلَاحُونَ.

4-topshiriq. Quyida berilgan savol-javoblarni o'qing va tarjima qiling. Savollar turini aniqlang.

- مَا هَذَا؟ هَذَا رَغِيفٌ. مَا هَذِهِ؟ هَذِهِ غُرْفَةٌ.
- مَنْ هُوَ؟ هُوَ فَنَّانٌ. مَنْ هُمَا؟ هُمَا طَبِيبَانِ.
- مَنْ هُمْ؟ هُمْ أَطِبَّاءٌ. مَنْ هُنَّ؟ هُنَّ طَبِيبَاتٌ.
- هَلْ ذَلِكَ مَسْرَحٌ؟ لَا ذَلِكَ مَتَحَفٌ.
- هَلْ هَذِهِ تَلْمِيزَةٌ؟ نَعَمْ هَذِهِ تَلْمِيزَةٌ.

هَلْ هَذَا مُتَرْجِمٌ أَوْ مُعَلِّمٌ؟ هَذَا مُتَرْجِمٌ.
هَلْ هَذِهِ الْمِلْعَقَةُ نَظِيفَةٌ؟ لَا هَذِهِ الْمِلْعَقَةُ وَسِخَةٌ.
مَنْ أَنْتِ؟ أَنَا كَاتِبَةٌ عَرَبِيَّةٌ.
مَنْ أَنْتُمَا؟ نَحْنُ كَاتِبَتَانِ عَرَبِيَّتَانِ.
مَنْ أَنْتُنَّ؟ نَحْنُ كَاتِبَاتٌ عَرَبِيَّاتٌ.
هَلْ هَذَا الْمَلْعَبُ وَاسِعٌ أَوْ ضَيِّقٌ؟
هَذَا الْمَلْعَبُ وَاسِعٌ.
هَلْ هَذِهِ جَدَّتُكَ؟ نَعَمْ هَذِهِ جَدَّتِي.
هَلْ جَامِعَتُكَ جَدِيدَةٌ أَوْ قَدِيمَةٌ؟
جَامِعَتِي جَدِيدَةٌ.
أَيْنَ رِسَالَتُكَ؟ رِسَالَتِي هُنَا.
أَيْنَ الطَّبِيبُ الْمَاهِرُ؟ الطَّبِيبُ الْمَاهِرُ هُنَاكَ.
أَيْنَ الْفُنْدُقُ الْقَرِيبُ؟ الْفُنْدُقُ الْقَرِيبُ هُنَا.

5-topshiriq. Quyidagi so‘roq gaplarni arab tiliga tarjima qiling.

*Sen qayerdansen? Ruchka qizilmi? Anavi kitoblar qiziqarlimi?
Sening do‘sting arabmi? Bu nima? O‘qituvchimiz qayerda?
Sening millating nima? Bu sening uyingmi yoki uning uyi?
Auditoriyamiz qayerda? Mashinang oqmi yoki qora? Bu
sovg‘alar qayerdan? Anavi lampa yorug‘mi? Bu shkaf
yangimi? Misr shaharmi? Yangi teatr qayerda? Darslaring
osonmi yoki qiyin? Bu sening suratingmi? Anavi nima? Bizning
xonamiz qayerda? Universitetingiz kattami? Bu kim? Marokash
davlatmi? Ahvollaring qanday?*

6-topshiriq. Berilgan so‘zlarni to‘g‘ri tartiblab, so‘roq gap tuzing va savollarga javob bering.

١.	الْمَاهِرُ / مِنْ / الْمُتَرْجِمُ / أَيْنَ / ذَلِكَ
٢.	أُولَئِكَ / مَنْ / الْبَنَاتُ
٣.	الْبَابُ / بُنِيَ / هَذَا / أَوْ / أَسْوَدُ / هَلْ
٤.	نَظِيفَةٌ / هَلْ / الْغُرْفَةُ / تِلْكَ
٥.	هَذَا / الطَّالِبُ / أَوْ / عَرَبِيٌّ / هَلْ
٦.	مِنْ / هَذِهِ / الْمَاهِرَةُ / أَيْنَ / الطَّبِيبَةُ
٧.	الْجَدِيدُ / أَيْنَ / الْفُنْدُقُ

٨.	هَذِهِ / الْكُتُبُ / هَلْ / مُمْتَعَةٌ
٩.	مُدَرِّسَاتُ / هَلْ / هُوَ لَا / الْبَنَاتُ
١٠.	مُدَرِّسَةٌ / هَلْ / طَالِبَةٌ / أَوْ / تِلْكَ / الْبِنْتُ
١١.	تِلْكَ / دَفَاتِرُكَ / هَلْ / دَفَاتِرُهُ / أَوْ
١٢.	هَلْ / سَهْلٌ / الدَّرْسُ / صَعْبٌ / هَذَا / أَوْ
١٣.	بَعِيدَةٌ / هَلْ / جَامِعَتُكُمْ
١٤.	الصُّفُوفُ / غَامِضَةٌ / هَلْ / أَوْ / نَيْرَةٌ

7-topshiriq. Quyida berilgan alternativ so‘roq gaplarni o‘qing, tarjima qiling va ularga javob bering.

١.	هَلِ الْبُيُوتُ بَارِدَةٌ أَوْ حَارَّةٌ؟
٢.	هَلِ الصُّورَةُ قَدِيمَةٌ أَوْ جَدِيدَةٌ؟
٣.	هَلِ الْأَقْلَامُ حُمْرَاءُ أَوْ صَفْرَاءُ؟

٤.	هَلِ الطَّبَّاخَةُ سَمِينَةٌ أَوْ نَخِيفَةٌ؟
٥.	هَلِ الْمِلْعَقَةُ نَظِيفَةٌ أَوْ وَسِخَةٌ؟
٦.	هَلِ السَّبُّورَاتُ سَوْدَاءُ أَوْ بَيْضَاءُ؟
٧.	هَلِ الْمَلْعَبُ قَرِيبٌ أَوْ بَعِيدٌ؟
٨.	هَلِ الصُّفُوفُ نَيِّرَةٌ أَوْ غَامِضَةٌ؟
٩.	هَلِ الْمَسَارِحُ وَاسِعَةٌ أَوْ ضَيِّقَةٌ؟
١٠.	هَلِ الطَّالِبُ أُوزْبِكِيٌّ أَوْ تُرْكِيٌّ؟
١١.	هَلِ الْمُسْكُ خَضِرَاءُ أَوْ زَرْقَاءُ؟
١٢.	هَلِ الدُّرُوسُ سَهْلَةٌ أَوْ صَعْبَةٌ؟
١٣.	هَلِ الْمَتَاحِفُ كَبِيرَةٌ أَوْ صَغِيرَةٌ؟
١٤.	هَلِ الْمَغْرِبُ دَوْلَةٌ أَوْ مَدِينَةٌ؟

17-DARS

PREDLOGLAR

**Asl (tub)
predloglar**

**Ot (yasama)
predloglar**

**Faqat
predlog
sifatida
ishlatiladigan
soʻzlar**

**Ot sifatida
ishlatilish bilan
birga predlog
vazifasini ham
bajaruvchi
soʻzlar**

1-qoida



**Predlog oʻziga
tegishli boʻlgan
soʻzdan oldin
keladi.**

2-qoida



**Predlogdan keyin
kelayotgan soʻz
qaratqich
kelishigida boʻladi.**

Asl predloglar

<i>haqida</i>	عَنْ	-da, ichida	فِي
<i>huzurida</i>	لَدَى	-ga, -gacha	إِلَى
<i>bilan, birga</i>	مَعَ	<i>ustida, ustiga</i>	عَلَى
<i>-gacha</i>	حَتَّى	-dan	مِنْ

<i>uyda</i>	فِي الْبَيْتِ	فِي بَيْتٍ
<i>universitetga</i>	إِلَى الْجَامِعَةِ	إِلَى جَامِعَةٍ
<i>stol ustida</i>	عَلَى الطَّاوِلَةِ	عَلَى طَاوِلَةٍ
<i>maktabdan</i>	مِنْ الْمَدْرَسَةِ	مِنْ مَدْرَسَةٍ
<i>dars haqida</i>	عَنِ الدَّرْسِ	عَنْ دَرْسٍ
<i>ustoz huzurida</i>	لَدَى الْأُسْتَاذِ	لَدَى أُسْتَاذٍ
<i>talaba bilan</i>	مَعَ الطَّالِبِ	مَعَ طَالِبٍ
<i>tonggacha</i>	حَتَّى الصَّبَّاحِ	حَتَّى صَبَّاحٍ

Qo'shilib yoziluvchi asl predloglar

بِالْقَلَمِ	بِقَلَمٍ	<i>bilan, vositasida</i>	بِ
Qalam bilan			
كَالشَّمْسِ	كَشَمْسٍ	<i>-dek, kabi, singari</i>	كَ
Quyosh kabi			
لِلْمُدَرِّسِ*	لِمُدَرِّسٍ	<i>uchun, ...niki, ...da bor</i>	لِ
O'qituvchi uchun, o'qituvchida bor, o'qituvchiniki			

ESLATMA

“Li” predlogidan
keyin kelayotgan soʻz
“al” aniqlik artiklini olsa, artikldagi
vaslali alif harfi yozuvda tushib
qoladi.

لِ الْمُدَرِّسِ = الْمُدَرِّسُ + لِ

لِ الطَّالِبِ = الطَّالِبُ + لِ

Ot predloglar

<i>tagida</i>	تَحْتَ	<i>ichida</i>	دَاخِلَ
<i>ustida</i>	فَوْقَ	<i>tashqarida</i>	خَارِجَ
<i>huzurida</i>	عِنْدَ	<i>yaqinida</i>	قُرْبَ
<i>orqali</i>	عَبْرَ	<i>oldida</i>	أَمَامَ
<i>davomida</i>	خِلَالَ	<i>qarshisida</i>	إِزَاءَ
<i>orasida</i>	بَيْنَ	<i>orqasida</i>	وَرَاءَ
<i>haqida</i>	حَوْلَ	<i>orqasida</i>	خَلْفَ

<i>Teatr yaqinida</i>	قُرْبَ الْمَسْرَحِ	قُرْبَ مَسْرَحٍ
<i>Muzey oldida</i>	أَمَامَ الْمَتْحَفِ	أَمَامَ مَتْحَفٍ
<i>Stadion qarshisida</i>	إِزَاءَ الْمَلْعَبِ	إِزَاءَ مَلْعَبٍ
<i>Daryo orqasida</i>	وَرَاءَ النَّهْرِ	وَرَاءَ نَهْرٍ
<i>Stul tagida</i>	تَحْتَ الْكُرْسِيِّ	تَحْتَ كُرْسِيِّ

18-DARS

Predlog boshqaruvidagi ot kesimli gaplar

1-topshiriq. Quyida berilgan predlog boshqaruvidagi ot kesimli gaplarni o‘qing va tarjima qiling. Har bir jumlani quyidagi namuna asosida o‘zgartiring.

Qora qalam sumkada.

الْقَلَمُ الْأَسْوَدُ فِي الْمِحْفَظَةِ.

Sumkada qora qalam bor.

فِي الْمِحْفَظَةِ قَلَمٌ أَسْوَدٌ.

الْكِتَابُ الْجَدِيدُ عَلَى الطَّاوَلَةِ.

الْبُيُوتُ الْجَمِيلَةُ فِي الْقَرْيَةِ.

الْمَجَلَّةُ الْجَدِيدَةُ عَلَى الْخِرَازَانَةِ.

الْقِطَّةُ تَحْتَ الْكُرْسِيِّ.

الْمُكَيِّفُ عَلَى الْجِدَارِ.

الدُّكَّانُ وَرَاءَ الْبَيْتِ.

الْمَسْرَحُ إِزَاءَ الْمَتَحَفِ.

الْمَدْرَسَةُ الْجَدِيدَةُ أَمَامَ الْمَكْتَبَةِ.

الطالبةُ الْمُجْتَهِدَةُ عِنْدَ الْمُعَلِّمِ.
الْمِلْعَقَةُ النَّظِيفَةُ عَلَى الطَّاوِلَةِ.

كَلِمَاتٌ جَدِيدَةٌ

مُفْرَدٌ	جَمْعٌ	تَرْجَمَةٌ
مِخْفَظَةٌ	مَحَافِظُ	sumka
طَاوِلَةٌ	طَاوِلَاتٌ	stol
مَجَلَّةٌ	مَجَلَّاتٌ	jurnal
خِزَانَةٌ	خَزَائِنُ	shkaf
تِلْفَازٌ	تَلَاْفِزُ	televizor
قِطَّةٌ	قِطَّاتٌ	mushuk
كُرْسِيٌّ	كُرَاسِيٌّ	stul
مُكَيِّفٌ	مُكَيِّفَاتٌ	konditsioner
جِدَارٌ	جُدُرٌ	devor
دُكَّانٌ	دَكَائِينُ	do 'kon
مِلْعَقَةٌ	مَلَاعِقُ	qoshiq

2-topshiriq. 1-mashqda berilgan predlog boshqaruvidagi ot kesimli gaplardan umumiy so‘roq gaplar yasang.

3-topshiriq. Quyida berilgan so‘zlar yordamida predlog boshqaruvidagi ot kesimli gaplarning har ikki turini tuzing:

<i>Konditsioner devorda.</i>
اَلْمُكَيَّفُ فِي الْجِدَارِ.
<i>Devorda konditsioner bor.</i>
فِي الْجِدَارِ مُكَيَّفٌ.

1. Konditsioner / devor
2. Mehmonxona / teatr
3. Shifokor / shifoxona
4. Baliq / daryo
5. Talaba / auditoriya
6. Go'sht / muzlatgich
7. Muhabbat / qalb
8. Asal / bozor
9. Meva / do'kon
10. Non / dasturxon
11. Pishloq / muzlatgich
12. Kompyuter / stol
13. Quyon / krovat
14. Qushlar / osmon
15. Odamlar / o'rmon
16. Televizor / shkaf
17. Bolalar / uy
18. Teatrlar / shahar
19. Bozor / do'kon
20. Muzlatgich / televizor

كَلِمَاتٌ جَدِيدَةٌ

مُفْرَدٌ	جَمْعٌ	تَرْجَمَةٌ
مُسْتَشْفَى	مُسْتَشْفَيَاتٌ	<i>shifoxona</i>
سَمَكٌ	أَسْمَاكٌ	<i>baliq</i>
فَصْلٌ	فُصُولٌ	<i>auditoriya</i>
لَحْمٌ	لُحُومٌ	<i>go'sht</i>
ثَلَاجَةٌ	ثَلَاجَاتٌ	<i>muzlatgich</i>
قَلْبٌ	قُلُوبٌ	<i>qalb</i>
عَسَلٌ	أَعْسَالٌ	<i>asal</i>
فَاكِهَةٌ	فَوَاكِهُ	<i>meva</i>
مَائِدَةٌ	مَوَائِدُ	<i>dasturxon</i>
جُبْنٌ	أَجْبَانٌ	<i>pishloq</i>

<i>bola</i>	أَوْلَادٌ ^{٢٨}	وَلَدٌ ^{٢٨}
<i>kompyuter</i>	حَوَاسِبٌ ^{٢٨}	حَاسُوبٌ ^{٢٨}
<i>qush</i>	طُيُورٌ ^{٢٨}	طَيْرٌ ^{٢٨ ٥}
<i>o'rmon</i>	غَابَاتٌ ^{٢٨}	غَابَةٌ ^{٢٨}
<i>osmon</i>	سَمَوَاتٌ ^{٢٨}	سَمَاءٌ ^{٢٨}
<i>shahar</i>	مُدُنٌ ^{٢٨}	مَدِينَةٌ ^{٢٨}
<i>rang</i>	أَلْوَانٌ ^{٢٨}	لَوْنٌ ^{٢٨}
<i>zavod</i>	مَصَانِعُ ^{٢٨}	مَصْنَعٌ ^{٢٨}
<i>muhabbat</i>	حُبٌّ ^{٢٨}	

“Li” predlogining birikma olmoshlari bilan berilishi		
birlik		
Menda ... bor. ... men uchun. ... meniki.	لِي	mz/mn
Senda ... bor. ... sen uchun. ... seniki.	لَكَ	mz
	لِكَ	mn
Unda ... bor. ... u uchun. ... uniki.	لَهُ	mz
	لَهَا	mn
ikkilik		
Siz ikkingizda ... bor. ... siz ikkingiz uchun. ... siz ikkingizniki.	لَكُمَا	mz/mn
Ular ikkisida ... bor. ... ular ikkisi uchun. ... ular ikkisiniki.	لَهُمَا	mz/mn
ko‘plik		
Bizda ... bor. ... biz uchun. ... bizniki.	لَنَا	mz/mn
Sizda ... bor. ... siz uchun. ... sizniki.	لَكُمْ	mz
	لَكُمْ	mn
Ularda ... bor. ... ular uchun. ... ularniki.	لَهُمْ	mz
	لَهُنَّ	mn

4-topshiriq. “Li” predlogi bilan kelgan birikma olmoshlari ishtirokida namunada ko‘rsatilgandek ikki xil tuzilishga ega gap tuzing. Gap tuzishda berilgan rasmlar va ularda ko‘rsatilgan ranglardan foydalaning.

١.	لَنَا أَرْزَبُ رَمَادِيَّةٌ.	الْأَرْزَبُ الرَّمَادِيَّةُ لَنَا.
	<i>Bizda kulrang quyon bor.</i>	<i>Kulrang quyon bizniki.</i>
٢.	لَهُنَّ ...	لَهُنَّ ...
٣.	لَكَ ...	لَكَ ...
٤.	لَهُ ...	لَهُ ...
٥.	لَكُمْ ...	لَكُمْ ...
٦.	لَنَا ...	لَنَا ...
٧.	لَهُمْ ...	لَهُمْ ...
٨.	لَكُنَّ ...	لَكُنَّ ...
٩.	لَهَا ...	لَهَا ...
١٠.	لَكَ ...	لَكَ ...

5-topshiriq. Quyida berilgan predlog boshqaruvidagi ot kesimli gaplarni o‘qing va tarjima qiling.

هَذَا الْبَيْتُ الْجَمِيلُ لِصَدِيقِي.
هَاتَانِ الْمُسْكَتَانِ لِلْمُدْرَسِ.
أُمِّي كَالشَّمْسِ. هَذِهِ الْهَدِيَّةُ لِأَبِي.
تِلْكَ الْأَقْلَامُ لِلطُّلَابِ.
لِلنَّاسِ قُلُوبٌ نَظِيفَةٌ. لِلْمُدِيرِ سَيَّارَةٌ سَوْدَاءُ.
تِلْكَ الرِّسَالَةُ عَنِ اللُّغَةِ الْعَرَبِيَّةِ.
هَذَا الْكِتَابُ عَنِ الْحُبِّ.
تِلْكَ الْبِنْتُ مِنْ أَوْزْبَكِسْتَانِ.
هَذَانِ الْكُرْسِيَّانِ مِنَ الصَّفِّ.
هَؤُلَاءِ الطُّلَابُ مِنْ مِصْرَ.
هَؤُلَاءِ الطَّالِبَاتُ مِنَ الْجَامِعَةِ.
تَانِكَ الطَّالِبَتَانِ مِنْ مُورِيتَانِيَا.
أُولَئِكَ الْمُعَلِّمُونَ مِنَ الْجَامِعَةِ الْإِسْلَامِيَّةِ.
ذَلِكَ الرَّسَامُ الْمَشْهُورُ مِنْ سُورِيَا.

6-topshiriq. Rasmga qarab quyidagi savollarga javob bering.



١	أَيْنَ الطَّيْرُ؟	٧	أَيْنَ الْأَقْلَامُ؟
٢	أَيْنَ الصُّورَةُ؟	٨	أَيْنَ السَّمَكُ؟
٣	أَيْنَ الْمِصْبَاحُ؟	٩	أَيْنَ الْمِحْفَظَةُ؟
٤	أَيْنَ الْمُكَيِّفُ؟	١٠	أَيْنَ الْكُتُبُ؟
٥	أَيْنَ الْكُرْسِيُّ؟	١١	أَيْنَ الْمِظَلَّةُ؟
٦	أَيْنَ الطَّاوِلَةُ؟	١٢	أَيْنَ الْحَاسُوبُ؟

7-topshiriq. Quyida berilgan predlog boshqaruvidagi ot kesimli gaplarni tarjima qiling. Tarjimani og‘zaki mashq qiling.

Do ‘konda pishloq bor.

Bu chizg ‘ich seniki.

Mehmonxona qarshisida bozor bor.

Maktab kutubxona va muzey o ‘rtasida.

Oq mushuk meniki.

Tarjimonda yangi kitoblar bor.

Bu shifokor Suriyadan.

Yangi kitob mashhur yozuvchi haqida.

Ruchkalar va qalamlar penalda.

Penalda ruchka va qalam bor.

Qizil soyabon uniki (mn).

Unda (mn) qizil soyabon bor.

Bu surat meniki.

Quyondaraxt tagida.

Daraxt tagida quyon bor.

Kutubxona universitet qarshisida.

Osmonda qushlar bor.

Bu chemodan tikuvchiniki.

Bizda chiroyli uy bor.

Quyondaraxt oldida.

Xonada konditsionar bor.

Doska va konditsioner o ‘rtasida surat bor.

Gul stol ustida.

Stol ustida gullar bor.

Surat doska va konditsioner o ‘rtasida.

Chemodan stol tagida.

Universitetda kutubxona bor.

Bu rassom Marokashdan.

Dengizda katta va kichik baliqlar bor.

Shkafda sovg ‘alar bor.

Sovg ‘alar shkafda.

Bu auditoriyada yangi oq doska bor.

Maktab qarshisida teatr bor.


Bozor uy va mehmonxona o ‘rtasida.

Yangi mashina o'qituvchiniki.
Telefon stol ustida.
Shaharda katta bozorlar bor.
Yangi kitoblar tarjimonniki.
Bu shifoxonada mohir shifokor bor.
Televizor krovat yaqinida.
Do'konda qora televizorlar bor.
Daftarlaring stol ustida.
Daryo ortida uylar bor.
Yangi kompyuter hisobchiliki.
Bizda yangi televizor bor.
Anjir daraxtda.
Daraxtda anjir bor.
Quyion daraxt qarshisida.
Auditoriyada yangi kompyuter bor.
Konditsioner xonada.
Bu talaba Iordaniyadan.
Qushlar osmonda.
Shkafda chemodan bor.
Daraxtda o'rik bor.
Bu sovg'a otam uchun.
Mushuk krovat tagida.
Surat devorda.
Qoshiqlar stol ustida.
Bolalar muzeyda.
Stul tagida mushuk bor.
O'qituvchimiz rektor huzurida.
Quyionlar o'rmonda.
Penal sumkada.
Devorda surat bor.
Onam uyda.
Dasturxonda mevalar bor.
Bu kitob ustozim uchun.
Kompyuter stol ustida.
Bu gullar onam uchun.
Bozorda asal bor.
O'rmonda quyionlar bor.
Bolalar uyda.

8-topshiriq. Quyida berilgan predlog boshqaruvidagi ot kesimli gaplarni o'qing va tarjima qiling.




الأَرْنَبُ ... الشَّجَرَة




الأَرْنَبُ ... الشَّجَرَة



الْكِتَابُ ... الأَرْنَبِ



الأَرْنَبُ ... الشَّجَرَة



الأَرْنَبُ ... الشَّجَرَة



الأَرْنَبُ ... الْبَيْتِ



الأَرْنَبُ ... الْبَيْتِ




الأَرْنَبُ ... الْبَيْتِ وَ الشَّجَرَة

9-topshiriq. Predloglardan foydalangan holda berilgan rasmlardan birini tasvirlang. Ot kesimli gaplar va birikma olmoshlaridan foydalangan holda predmetlarning rangini ko‘rsating.

namuna

عَلَى الْجِدَارِ سَبُّورَةٌ. لَوْنُهَا خَضِرَاءُ.





19-DARS

IZOFA (MOSLASHMAGAN ANIQLOVCHI)

Arab tilida moslashmagan aniqlovchili soʻz birikmasi qisqa qilib, izofa deyiladi. Izofa oʻzbek tilidagi qaratqich aniqlovchi ishtirok etgan soʻz birikmasi kabi boʻladi. Masalan, *shahar markazi, talabaning kitobi, uyning kaliti, devorning qulogʻi*.

ARAB TILIDA


Qaralmish (mudof) + qaratqich (mudof ilayh)



OʻZBEK TILIDA

Qaratqich + qaralmish

Arab tilida izofa birikmasi ikki komponentdan iborat boʻladi: **qaralmish (mudof)** va **qaratqich (mudof ilayh)**. Oʻzbek tilidan farqli oʻlaroq arab tilida oldin **qaralmish (mudof)**, undan soʻng **qaratqich (mudof ilayh)** keladi.



Har ikki komponentda quyidagi qoidalar amal qiladi:



Keltirilgan qoidalaridan ko‘rinib turibdiki, izofaning noaniq yoki aniq holatda ekanligi qaratqichga qarab aniqlanadi.

NOANIQ HOLATDAGI IZOFA BIRIKMALARI

O‘qituvchining
 mashinasi



سَيَّارَةٌ مُدَرِّسٍ

Shaharning
 markazi



مَرْكَزُ مَدِينَةٍ

Universitet
 kutubxonasi



مَكْتَبَةُ جَامِعَةٍ

Talabanning
 kitobi



كِتَابُ طَالِبٍ

ANIQ HOLATDAGI IZOFA BIRIKMALARI

O‘qituvchining
 mashinasi



سَيَّارَةُ الْمُدَرِّسِ

Shaharning
 markazi



مَرْكَزُ الْمَدِينَةِ

Universitet
 kutubxonasi



مَكْتَبَةُ الْجَامِعَةِ

Talabanning
 kitobi



كِتَابُ الطَّالِبِ









الْجَنَّةُ تَحْتَ أَقْدَامِ الْأُمَّهَاتِ.

**JANNAT –
 onalarning oyoqlari ostidadir.**

1-topshiriq. Berilgan rasmlar asosida quyidagi savollarga javob bering. Javobda izofa birikmasi va ranglardan foydalaning.

<i>namuna</i>	مَا لَوْنُ الطَّيْرِ؟ لَوْنُ الطَّيْرِ بُنْيَ.
---------------	--

١	مَا لَوْنُ الْبَيْتِ؟	١١	مَا لَوْنُ الْأَرَنْبِ؟
٢	مَا لَوْنُ الْمَسَاطِيرِ؟	١٢	مَا لَوْنُ السَّمَكِ؟
٣	مَا لَوْنُ الْهَاتِفِ؟	١٣	مَا لَوْنُ الشَّجَرَةِ؟
٤	مَا لَوْنُ الْمُكَيِّفِ؟	١٤	مَا لَوْنُ التِّلْفَازِ؟
٥	مَا لَوْنُ الطَّاوِلَةِ؟	١٥	مَا لَوْنُ الْمِسْطَرَةِ؟
٦	مَا لَوْنُ الْبَابِ؟	١٦	مَا لَوْنُ الْحَاسُوبِ؟
٧	مَا لَوْنُ النَّبَاتِ؟	١٧	مَا لَوْنُ الْمِظْلَةِ؟
٨	مَا لَوْنُ الْكُرْسِيِّ؟	١٨	مَا لَوْنُ السَّيَّارَةِ؟
٩	مَا لَوْنُ الطَّيْرِ؟	١٩	مَا لَوْنُ السَّبُّورَةِ؟
١٠	مَا لَوْنُ الْمَلَاعِقِ؟	٢٠	مَا لَوْنُ الْمِلْعَقَةِ؟

			
kulrang	olovrang	pushti	jigarrang
			
qora	oq	sariq	ko'k
			
jigarrang	qizil	sariq	qizil
			
yashil	kulrang	yashil	oq
			
qora	olovrang	siyohrang	ko'k

2-topshiriq. Birlik va ko‘plikda berilgan izofa birikmalarini tez o‘qishni mashq qiling.

birikma tarjimasi	izofa birikmasi	
<i>Qizning libosi</i>	لِبَاسُ الْبِنْتِ	مُفْرَدٌ
<i>Qizlarning liboslari</i>	الْبِسَةُ الْبَنَاتِ	جَمْعٌ
<i>Bolaning krovati</i>	سَرِيرُ الْوَلَدِ	مُفْرَدٌ
<i>Bolalarning krovatlari</i>	سُرُرُ الْأَوْلَادِ	جَمْعٌ
<i>Savdogarning do‘koni</i>	دُكَّانُ التَّاجِرِ	مُفْرَدٌ
<i>Savdogarlarning do‘konlari</i>	دُكَاكِينُ التُّجَّارِ	جَمْعٌ
<i>Talabaning qalami</i>	قَلَمُ الطَّالِبِ	مُفْرَدٌ
<i>Talabalarning qalamlari</i>	أَقْلَامُ الطُّلَّابِ	جَمْعٌ
<i>Shifokorning uyi</i>	بَيْتُ الطَّبِيبِ	مُفْرَدٌ
<i>Shifokorlarning uylari</i>	بُيُوتُ الْأَطِبَّاءِ	جَمْعٌ
<i>Chemodanning kaliti</i>	مِفْتَاحُ الْحَقِيبَةِ	مُفْرَدٌ

<i>Chemodanlarning kalitlari</i>	مَفَاتِيحُ الْحَقَائِبِ	جَمْعُ
<i>Direktorning xonasi</i>	غُرْقَةُ الْمُدِيرِ	مُفْرَدٌ
<i>Direktorlarning xonalari</i>	غُرَفُ الْمُدَرَّاءِ	جَمْعُ
<i>Mashinaning eshigi</i>	بَابُ السَّيَّارَةِ	مُفْرَدٌ
<i>Mashinalarning eshiklari</i>	أَبْوَابُ السَّيَّارَاتِ	جَمْعُ
<i>Boboning ismi</i>	إِسْمُ الْجَدِّ	مُفْرَدٌ
<i>Bobolarning ismlari</i>	أَسْمَاءُ الْأَجْدَادِ	جَمْعُ
<i>Kiyimning choʻntagi</i>	جَيْبُ اللَّبَاسِ	مُفْرَدٌ
<i>Kiyimlarning choʻntaklari</i>	جُيُوبُ الْأَلْبِسَةِ	جَمْعُ
<i>Onaning haqi</i>	حَقُّ الْوَالِدَةِ	مُفْرَدٌ
<i>Onalarning haqlari</i>	حُقُوقُ الْوَالِدَاتِ	جَمْعُ
<i>Insonning amali</i>	عَمَلُ الْإِنْسَانِ	مُفْرَدٌ
<i>Insonlarning amallari</i>	أَعْمَالُ النَّاسِ	جَمْعُ

كَلِمَاتٌ جَدِيدَةٌ

مُفْرَدٌ	جَمْعٌ	تَرْجَمَةٌ
لِبَاسٌ	الْبِسَةُ	libos
تَاجِرٌ	تُجَّارٌ	savdogar
وَالِدَةٌ	وَالِدَاتٌ	ona
مِفْتَاحٌ	مَفَاتِيحُ	kalit
حَقِيبَةٌ	حَقَائِبُ	chemodan
مُدِيرٌ	مُدَرَّاءُ	direktor
جَيْبٌ	جُيُوبٌ	cho'ntak
حَقٌّ	حُقُوقٌ	haq
إِسْمٌ	أَسْمَاءٌ	ism
عَمَلٌ	أَعْمَالٌ	amal
عَاصِمَةٌ	عَوَاصِمُ	poytaxt

3-topshiriq. Izofa birikmalarini to'ldiring va jummalarni tarjima qiling.

طَالِبُ ... فِي الْجَامِعَةِ.

كِتَابُ ... عَلَى الطَّائِلَةِ.

سَيَّارَةٌ ... سَوْدَاءُ.

بَيْتُ ... وَرَاءَ الْمَسْرَحِ.

دُكَّانُ ... فِي السُّوقِ.

صُورَةٌ ... عَلَى الْجِدَارِ.

بَابُ ... مَفْتُوحٌ.

مُسْكَةٌ ... فِي الْمِثْلَمَةِ.

مَجْلَّةٌ ... عَلَى الْكُرْسِيِّ.

أَلْبِسَةٌ ... فِي الْخِزَانَةِ.

مِفْتَاحُ ... فِي الْجَيْبِ.

حَقِيبَةٌ ... تَحْتَ الْكُرْسِيِّ.

حَاسُوبٌ ... عَلَى الطَّائِلَةِ.

4-topshiriq. Izofa birikmalarini arab tiliga tarjima qiling.

Teatr direktori, jannat eshiklari, shahar ko'chalari, auditoriya derazalari, inson amallari, o'qituvchining stoli, o'rmon quyoni, daryo baliqlari, qizning mushugi, baliqning ko'zi, shifoxona shifokorlari, xonaning eshigi, hisobchining kompyuteri, inson qalbi, kutubxona kitoblari, oshpazning qoshig'i, shahar stadionlari, respublika muzeylari, sinf derazalari, xonaning lampasi, universitet talabalari, qizning soyaboni, universitet o'qituvchisi, quyonning qulog'i, qushning ko'zi, o'rmon o'simliklari, shahar mehmonxonalari, mehmonxona xonalari, maktab o'quvchisi, talabaning telefoni, qizning sirlari, insonlarning amallari.

5-topshiriq. Berilgan so'zlardan foydalangan holda 20 ta izofa birikmasini tuzing.



6-topshiriq. Quyida berilgan so'zlarga kasb-korni ifodalovchi so'zlarni qo'shgan holda izofa birikmasi yasang.



7-topshiriq. Quyidagi matnni o‘qing, tarjima qiling. Gap tarkibida izofa shaklida berilishi mumkin bo‘lgan joylarni namunadagidek o‘zgartirib, matnni qayta yozing.

namuna	طَالِبَةٌ فِي الْجَامِعَةِ ← طَالِبَةُ الْجَامِعَةِ
--------	---

إِسْمِي زَيْنَبُ.
أَنَا طَالِبَةٌ فِي الْجَامِعَةِ.
لِي أَبٌ وَ أُمُّ.
أَبِي مُحَاسِبٌ فِي الدُّكَّانِ.
أُمِّي مُدْرَسَةٌ فِي الْمَدْرَسَةِ.
لِي أَخٌ كَبِيرٌ وَ أُخْتُ صَغِيرَةٌ.
أَخِي طَالِبٌ فِي الْجَامِعَةِ.
أُخْتِي تَلْمِيزَةٌ فِي الْمَدْرَسَةِ.
لِي جَدٌّ وَ جَدَّةٌ.
جَدِّي مُهَنْدِسٌ فِي الْمَصْنَعِ.
جَدَّتِي مُدِيرَةٌ فِي الْمَكْتَبَةِ.

8-topshiriq. Quyidagi soʻzlardan namunada koʻrsatilganidek izofa birikmasi tuzing.

namuna	جَامِعَةٌ / طَالِبَةٌ ← طَالِبَةُ الْجَامِعَةِ
--------	--

١	بِنْتُ / أَسْرَارُ	١١	فُنْدُقُ / غُرْفُ
٢	فَنَائَاتُ / مَسْرَحُ	١٢	أُمُّ / وَلَدُ
٣	هَدَايَا / طُلَّابُ	١٣	عَيْنُ / طَيْرُ
٤	مَكْتَبَةٌ / مُدِيرُ	١٤	أَرْنَبُ / أُذُنُ
٥	نَجَّارُ / قَرْيَةٌ	١٥	طَالِبَةٌ / مِظْلَةٌ
٦	أَوْلَادُ / سُرُرُ	١٦	أَشْجَارُ / غَابَةٌ
٧	مَدْرَسَةٌ / كُتُبُ	١٧	جَامِعَةٌ / دُرُوسُ
٨	مَدِينَةٌ / دَكَائِينُ	١٨	أَسْوَاقُ / قَرْيَةٌ
٩	إِبْنُ / أَبُ	١٩	جُمْهُورِيَّةُ / مَلَاعِبُ
١٠	جَامِعَةٌ / مُتَرْجِمَةٌ	٢٠	مَحَافِظُ / بَنَاتُ

Arab tilida “al” **aniqlik artiklini olmaydigan tanvinsiz** keladigan geografik joy nomlari (davlat, shahar nomlari), odamlarning ismlari **ikki kelishikli otlar** hisoblanadi.

Ular kelishiklarda turlanganda, **bosh kelishikda damma** harakati bilan, **qaratqich-tushum kelishigida esa fatha** harakati bilan tugaydi.

**Qaratqich,
tushum
kelishiklari**

**Bosh
kelishik**

أُوزُبَكِسْتَانُ

مِصْرُ

تُونِسَ

طَشْقَنْدُ

سَمَرْقَنْدُ

دِمَشْقُ

أُوزُبَكِسْتَانُ

مِصْرُ

تُونِسُ

طَشْقَنْدُ

سَمَرْقَنْدُ

دِمَشْقُ

أَحْمَدُ

حَمْرَةَ

زَيْنَبُ

مَرْيَمُ

فَاطِمَةُ

أَحْمَدُ

حَمْرَةَ

زَيْنَبُ

مَرْيَمُ

فَاطِمَةُ

9-topshiriq. Jummalarni o'qing, tarjima qiling. Jumlar tarkibida kelgan izofa birikmalarini ajrating. Arab davlatlari poytaxtlarini yodlang.

مَا هِيَ عَاصِمَةُ أُوزْبِكِسْتَانِ ؟

عَاصِمَةُ أُوزْبِكِسْتَانِ هِيَ مَدِينَةُ طَشْقَنْدٍ.

مَا هِيَ عَاصِمَةُ مِصْرَ ؟

عَاصِمَةُ مِصْرَ هِيَ مَدِينَةُ الْقَاهِرَةِ.

مَا هِيَ عَاصِمَةُ تُونِسَ ؟

عَاصِمَةُ تُونِسَ هِيَ مَدِينَةُ تُونِسَ.

مَا هِيَ عَاصِمَةُ سُورِيَا ؟

عَاصِمَةُ سُورِيَا هِيَ مَدِينَةُ دِمَشْقَ.

مَا هِيَ عَاصِمَةُ لِيْبِيَا ؟

عَاصِمَةُ لِيْبِيَا هِيَ مَدِينَةُ طَرَابُلُسَ.

مَا هِيَ عَاصِمَةُ الْعِرَاقِ ؟

عَاصِمَةُ الْعِرَاقِ هِيَ مَدِينَةُ بَغْدَادَ.

مَا عَاصِمَةُ الْمَغْرِبِ ؟

عَاصِمَةُ الْمَغْرِبِ هِيَ مَدِينَةُ الرَّبَاطِ.

كَلِمَاتٌ جَدِيدَةٌ

<i>O'zbekiston</i>	أُوزْبِكِسْتَانُ
<i>Toshkent</i>	طَشْقَنْدُ
<i>Misr</i>	مِصْرُ
<i>Qohira</i>	الْقَاهِرَةُ
<i>Tunis</i>	تُونِسُ
<i>Suriya</i>	سُورِيَا
<i>Damashq</i>	دِمَشْقُ
<i>Liviya</i>	لِيْبِيَا
<i>Tripoli</i>	طَرَابُلُسُ
<i>Iroq</i>	الْعِرَاقُ
<i>Bag 'dod</i>	بَغْدَادُ
<i>Marokash</i>	الْمَغْرِبُ
<i>Rabot</i>	الرَّبَّاطُ

<i>Qatar</i>	قَطَرْ
<i>Mavritaniya</i>	مُورِتَانِيَا
<i>Iordaniya</i>	الأُرْدُنْ
<i>Jazoir</i>	الْجَزَائِرْ
<i>Somali</i>	السُّومَالُ
<i>Sudan</i>	السُّودَانُ
<i>Saudiya</i>	السُّعُودِيَّةُ
<i>Turkiya</i>	تُرْكِيَا

10-topshiriq. Quyidagi savollarga javob bering.









مَا هِيَ عَاصِمَةُ قَطَرْ؟	١
مَا هِيَ عَاصِمَةُ سُورِيَا؟	٢
مَا هِيَ عَاصِمَةُ الْأُرْدُنْ؟	٣
مَا هِيَ عَاصِمَةُ الْجَزَائِرِ؟	٤

۵	مَا هِيَ عَاصِمَةُ تُونِسَ ؟
۶	مَا هِيَ عَاصِمَةُ السُّوْمَالِ ؟
۷	مَا هِيَ عَاصِمَةُ لِيْبِيَا ؟
۸	مَا هِيَ عَاصِمَةُ السُّوْدَانِ ؟
۹	مَا هِيَ عَاصِمَةُ مُوْرِتَانِيَا ؟
۱۰	مَا هِيَ عَاصِمَةُ السُّعُوْدِيَّةِ ؟
۱۱	مَا هِيَ عَاصِمَةُ الْعِرَاقِ ؟
۱۲	مَا هِيَ عَاصِمَةُ اُوْزْبَكِسْتَانِ ؟
۱۳	مَا هِيَ عَاصِمَةُ الْمَغْرِبِ ؟
۱۴	مَا هِيَ عَاصِمَةُ تُرْكِيَا ؟

صَوْتُ أُمِّكَ فِي الْبَيْتِ أَكْبَرُ النِّعْمَةِ.

**Uydagi onangning ovozi –
ne'matlarning eng buyugidir.**

11-topshiriq. Quyidagilardan izofa birikmasi hosil qiling.



20-DARS

Sanoq sonlar

mn	mz	raqam	
صِفْرٌ ²⁸		0	٠
وَاحِدَةٌ ²⁸	وَاحِدٌ ²⁸	1	١
اِثْنَتَانِ ²⁸	اِثْنَانِ ²⁸	2	٢
ثَلَاثَةٌ ²⁸	ثَلَاثٌ ²⁸	3	٣
أَرْبَعَةٌ ²⁸	أَرْبَعٌ ²⁸	4	٤
خَمْسَةٌ ²⁸	خَمْسٌ ²⁸	5	٥
سِتَّةٌ ²⁸	سِتٌّ ²⁸	6	٦
سَبْعَةٌ ²⁸	سَبْعٌ ²⁸	7	٧
ثَمَانِيَةٌ ²⁸	ثَمَانٍ ²⁸	8	٨
تِسْعَةٌ ²⁸	تِسْعٌ ²⁸	9	٩
عَشْرَةٌ ²⁸	عَشْرٌ ²⁸	10	١٠

أَحَدَ عَشَرَ	إِحْدَى عَشْرَةَ	11	۱۱
إِثْنَا عَشَرَ	إِثْنَتَا عَشْرَةَ	12	۱۲
ثَلَاثَةَ عَشَرَ	ثَلَاثَ عَشْرَةَ	13	۱۳
أَرْبَعَةَ عَشَرَ	أَرْبَعَ عَشْرَةَ	14	۱۴
خَمْسَةَ عَشَرَ	خَمْسَ عَشْرَةَ	15	۱۵
سِتَّةَ عَشَرَ	سِتَّ عَشْرَةَ	16	۱۶
سَبْعَةَ عَشَرَ	سَبْعَ عَشْرَةَ	17	۱۷
ثَمَانِيَةَ عَشَرَ	ثَمَانِيَ عَشْرَةَ	18	۱۸
تِسْعَةَ عَشَرَ	تِسْعَ عَشْرَةَ	19	۱۹

Yaxlit o'nliklar

عِشْرُونَ	20	۲۰
ثَلَاثُونَ	30	۳۰
أَرْبَعُونَ	40	۴۰

خَمْسُونَ	50	٥٠
سِتُّونَ	60	٦٠
سَبْعُونَ	70	٧٠
ثَمَانُونَ	80	٨٠
تِسْعُونَ	90	٩٠
مِئَةٌ	100	١٠٠

O'nliklar + birliklar

وَاحِدٌ وَ عِشْرُونَ	21	٢١
إِثْنَانِ وَ عِشْرُونَ	22	٢٢
ثَلَاثَةٌ وَ عِشْرُونَ	23	٢٣
أَرْبَعَةٌ وَ عِشْرُونَ	24	٢٤
خَمْسَةٌ وَ عِشْرُونَ	25	٢٥
سِتَّةٌ وَ عِشْرُونَ	26	٢٦

سَبْعَةٌ وَعِشْرُونَ	27	٢٧
ثَمَانِيَةٌ وَعِشْرُونَ	28	٢٨
تِسْعَةٌ وَعِشْرُونَ	29	٢٩
ثَلَاثُونَ	30	٣٠

1-topshiriq. Daftaringizga 31dan 100gacha bo'lgan sanoq sonlarni yozing.

2-topshiriq. Quyidagi raqamlarni arab tilida ayting.

23558704

19002341


45711090

65438812

02438750

76895400

3-topshiriq. Raqam va yozuv bilan ifodalangan sonlarni taqqoslang. Raqam bilan ifodalangan sonlar ichidan ikkita ortiqchasini toping.




ثَلَاثَةٌ	أَحَدَ عَشَرَ	ثَمَانِيَّةٌ	ثَلَاثَةُ عَشَرَ
ثَمَانِيَّةٌ عَشَرَ	وَاحِدٌ	سَبْعَةُ عَشَرَ	تِسْعَةٌ
خَمْسَةٌ	أَرْبَعَةُ عَشَرَ	أَرْبَعَةٌ	اِثْنَا عَشَرَ
سِتَّةٌ عَشَرَ	سَبْعَةٌ	خَمْسَةُ عَشَرَ	سِتَّةٌ

1 va 2 sanoq sonlarining sanalmish bilan kelishi

1 va 2 sanoq sonlarini sanalmish bilan berish shart emas, chunki sanalmishning birlik yoki ikkilik sonda kelishi uni bitta yoki ikkitaligiga ishora qiladi. Lekin predmet sonini ta’kidlash zarurati tug’ilsa, sanalmish bilan 1 va 2 sanoq sonlari beriladi. Bunda sanoq sonlar sanalmishdan keyin kelib, u bilan moslashgan aniqlovchili so‘z birikmasidek munosabatga kirishadi.

<i>O‘qituvchi huzurida ikkita talaba bor.</i>	عِنْدَ الْمُعَلِّمِ طَالِبَتَانِ اِثْنَتَانِ.
<i>Stol ustida bitta qoshiq bor.</i>	عَلَى الطَّاوِلَةِ مِلْعَقَةٌ وَاحِدَةٌ.

4-topshiriq. Quyidagi so‘zlarning har birini bir va ikki sanoq sonlari bilan bering.



3 dan 10 gacha bo'lgan sanoq sonlarning sanalmish bilan kelishi

3 dan 10 gacha bo'lgan sanoq sonlar sanalmish bilan izofa birikmasini tashkil etadi. Bunda son mudof, sanalmish esa mudof ilayh bo'lib keladi. Son sanalmishning birlikdagi jinsiga teskari jinsda keladi va izofaning qoidasiga ko'ra "al" aniqlik artiklisiz, tanvinsiz bo'ladi. Sanalmish esa doim ko'plikda, noaniq holatda, qaratqich kelishigida keladi.

4 ta talaba	أَرْبَعَةُ طُلَّابٍ	4 ta sovg'a	أَرْبَعُ هَدَايَا
5 ta krovat	خَمْسَةُ سُرُرٍ	5 ta shahar	خَمْسُ مَدَنٍ
6 ta daryo	سِتَّةُ أَنْهَارٍ	6 ta ruchka	سِتُّ مُسَكٍ
7 ta qalam	سَبْعَةُ أَقْلَامٍ	7 ta maktab	سَبْعُ مَدَارِسَ
8 ta daftar	ثَمَانِيَةُ دَفَاتِرَ	8 ta xona	ثَمَانِي غُرَفٍ

5-topshiriq. Arab tiliga tarjima qiling.

3 ta krovat	9 ta dars	8 ta kiyim
4 ta auditoriya	10 ta kitob	6 ta krovat
5 ta qalam	4 ta eshik	3 ta xona
8 ta daraxt	5 ta chemodan	7 ta sovg'a
4 ta cho'ntak	10 ta poytaxt	6 ta respublika
5 ta shifokor	8 ta qiz	4 ta teatr
8 ta muzey	5 ta o'simlik	7 ta qalam

6-topshiriq. 1dan 10gacha bo'lgan sanoq sonlarni sanalmishga moslashtirgan holda qavslarni oching. Raqamlarni yozuvda bering.

بَابٌ وَاحِدٌ	بَابٌ (١)	١.
	(٣) فُصُولٌ	٢.
	سَرِيرَانِ (٢)	٣.
	(٧) أَقْلَامٌ	٤.
	غُرْفَةٌ (١)	٥.
	(١٠) كُتُبٌ	٦.
	كِتَابٌ (١)	٧.
	(٩) غُرَفٌ	٨.
	فَصْلَانِ (٢)	٩.
	(٨) دُرُوسٌ	١٠.
	شَجَرَةٌ (١)	١١.

	غُرْفَتَانِ (۲)	۱۲.
	أَبْوَابُ (۳)	۱۳.
	سُرُرُ (۴)	۱۴.
	دَرْسُ (۱)	۱۵.

7-topshiriq. Quyidagi soʻzlarning har birini uchdan oʻngacha boʻlgan sanoq sonlar bilan bering.



11 dan 19 gacha boʻlgan sanoq sonlarning sanalmish bilan kelishi

11 dan 19 gacha boʻlgan sanoq sonlarni sanalmish bilan berishda quyidagi qoidalarga amal qilinadi:

1. **11dan 19 gacha boʻlgan sanoq sonlar** sanalmish bilan kelganda, sanoq son har uch kelishikda ham tanvinsiz tushum kelishigida keladi. Sanalmish esa birlikda, noaniq holatda (“al” aniqlik artiklisiz), tushum kelishigida keladi.


2. **11 va 12 sanoq sonlarning** ham birlik, ham oʻnlik qismi sanalmishning jinsi bilan moslashadi.

mn	mz
إِحْدَى عَشْرَةَ مُسْكَةً	أَحَدَ عَشَرَ قَلَمًا
11 ta ruchka	11 ta qalam
إِثْنَتَا عَشْرَةَ مُسْكَةً	إِثْنَا عَشَرَ قَلَمًا
12 ta ruchka	12 ta qalam

3. **13dan 19gacha bo'lgan sanoq sonlarda** esa birlik son sanalmishning jinsiga teskari jinsda, o'nlik son esa sanalmish bilan bir xil jinsda bo'ladi.

mn	mz
ثَلَاثَ عَشْرَةَ مُسْكَةً	ثَلَاثَةَ عَشَرَ قَلَمًا
13 ta ruchka	13 ta qalam
أَرْبَعَ عَشْرَةَ مُسْكَةً	أَرْبَعَةَ عَشَرَ قَلَمًا
14 ta ruchka	14 ta qalam
خَمْسَ عَشْرَةَ مُسْكَةً	خَمْسَةَ عَشَرَ قَلَمًا
15 ta ruchka	15 ta qalam
سِتَّ عَشْرَةَ مُسْكَةً	سِتَّةَ عَشَرَ قَلَمًا
16 ta ruchka	16 ta qalam
سَبْعَ عَشْرَةَ مُسْكَةً	سَبْعَةَ عَشَرَ قَلَمًا
17 ta ruchka	17 ta qalam
ثَمَانِيَّ عَشْرَةَ مُسْكَةً	ثَمَانِيَةَ عَشَرَ قَلَمًا
18 ta ruchka	18 ta qalam
تِسْعَ عَشْرَةَ مُسْكَةً	تِسْعَةَ عَشَرَ قَلَمًا
19 ta ruchka	19 ta qalam

8-topshiriq. Quyidagi soʻzlarning har birini oʻn birdan oʻn toʻqqizgacha boʻlgan sanoq sonlar bilan bering.



Yaxlit oʻnliklarning sanalmish bilan kelishi

Yaxlit oʻnliklar sanalmish bilan kelganda, sanalmish 11 - 19 sanoq sonlarda boʻlgani kabi birlikda, noaniq holatda (“al” aniqlik artiklisiz), tushum kelishigida keladi.

mn	mz
عِشْرُونَ مُسْكَةً	عِشْرُونَ قَلَمًا
20 ta ruchka	20 ta qalam
ثَلَاثُونَ مُسْكَةً	ثَلَاثُونَ قَلَمًا
30 ta ruchka	30 ta qalam
أَرْبَعُونَ مُسْكَةً	أَرْبَعُونَ قَلَمًا
40 ta ruchka	40 ta qalam
خَمْسُونَ مُسْكَةً	خَمْسُونَ قَلَمًا
50 ta ruchka	50 ta qalam
سِتُّونَ مُسْكَةً	سِتُّونَ قَلَمًا
60 ta ruchka	60 ta qalam
سَبْعُونَ مُسْكَةً	سَبْعُونَ قَلَمًا
70 ta ruchka	70 ta qalam

ثَمَانُونَ مِسْكَةً	ثَمَانُونَ قَلَمًا
80 ta ruchka	80 ta qalam
تِسْعُونَ مِسْكَةً	تِسْعُونَ قَلَمًا
90 ta ruchka	90 ta qalam

9-topshiriq. Quyidagi soʻzlarning har birini yaxlit oʻnliklar bilan bering.



21dan 99gacha boʻlgan sanoq sonlarning sanalmish bilan kelishi

21 dan 99 gacha boʻlgan sanoq sonlarni sanalmish bilan berishda quyidagi qoidalarga amal qilinadi:

1. **21 dan 99 gacha boʻlgan sanoq sonlar** sanalmish bilan kelganda, sanalmish birlikda, noaniq holatda (“al” aniqlik artiklisiz), tushum kelishigida keladi.

2. **21-22, 31-32, 41-42 ... 91-92 boʻlgan sanoq sonlarning** birlik qismi sanalmishning jinsi bilan moslashadi.

mn	mz
وَاحِدَةٌ وَعِشْرُونَ مُسْكَةً	وَاحِدٌ وَعِشْرُونَ قَلَمًا
<i>21 ta ruchka</i>	<i>21 ta qalam</i>
اِثْنَتَانِ وَعِشْرُونَ مُسْكَةً	اِثْنَانِ وَعِشْرُونَ قَلَمًا
<i>22 ta ruchka</i>	<i>22 ta qalam</i>

3. **23 – 29, 33 – 39, 43 – 49 ... 93 – 99 sanoq sonlarda** esa birlik son sanalmishning jinsiga teskari jinsda bo'ladi.


mn	mz
ثَلَاثٌ وَعِشْرُونَ مُسْكَةً	ثَلَاثَةٌ وَعِشْرُونَ قَلَمًا
<i>23 ta ruchka</i>	<i>23 ta qalam</i>
أَرْبَعٌ وَعِشْرُونَ مُسْكَةً	أَرْبَعَةٌ وَعِشْرُونَ قَلَمًا
<i>24 ta ruchka</i>	<i>24 ta qalam</i>
خَمْسٌ وَعِشْرُونَ مُسْكَةً	خَمْسَةٌ وَعِشْرُونَ قَلَمًا
<i>25 ta ruchka</i>	<i>25 ta qalam</i>
سِتٌّ وَعِشْرُونَ مُسْكَةً	سِتَّةٌ وَعِشْرُونَ قَلَمًا
<i>26 ta ruchka</i>	<i>26 ta qalam</i>
سَبْعٌ وَعِشْرُونَ مُسْكَةً	سَبْعَةٌ وَعِشْرُونَ قَلَمًا
<i>27 ta ruchka</i>	<i>27 ta qalam</i>

ثَمَانِيَّةٌ وَ عِشْرُونَ قَلَمًا	ثَمَانٍ وَ عِشْرُونَ مُسْكَةً
28 ta qalam	28 ta ruchka
تِسْعَةٌ وَ عِشْرُونَ قَلَمًا	تِسْعٌ وَ عِشْرُونَ مُسْكَةً
29 ta qalam	29 ta ruchka







21-DARS











Mustahkamlash mashqlari

1-topshiriq. Keltirilgan soʻzlarni quyidagi sanoq sonlar bilan bering.



2-topshiriq. Quyidagi rasm soʻzlarni tagidagi sonlar bilan bering.

			
11 ta	3 ta	5 ta	1 ta
			
4 ta	18 ta	3 ta	2 ta
			
9 ta	13 ta	16 ta	7 ta
			
6 ta	14 ta	8 ta	1 ta

			
10 ta	23 ta	15 ta	21 ta
			
44 ta	8 ta	12 ta	2 ta
			
6 ta	18 ta	3 ta	2 ta
			
9 ta	22 ta	50 ta	72 ta
			
34 ta	41 ta	33 ta	12 ta

كَمْ so‘roq olmoshidan keyin kelayotgan so‘z birlikda, noaniq holatda (“al” aniqlik artiklisiz), tushum kelishigida keladi.

Sinfda nechta stul bor?	←	كَمْ كُرْسِيًّا فِي الْغُرْفَةِ؟
Senda nechta kitob bor?	←	كَمْ كِتَابًا لَكَ؟
Devorda nechta surat bor?	←	كَمْ صُورَةً عَلَى الْجِدَارِ؟

3-topshiriq. Quyidagi savollarni tarjima qiling va qavs ichida berilgan raqamlarga mos tarzda javob yozing.

كَمْ نَافِذَةً فِي الْغُرْفَةِ ؟ (٣)	١.
كَمْ طَالِبًا عِنْدَ الْمُدَرِّسِ ؟ (١٤)	٢.
